

## **BADIIY ADABIYOTDA XALQ MAQOLLARI VA HIKMATLI SO‘ZLARNING AKS ETISHI (O‘ZBEK JADID ADABIYOTI MISOLIDA)**

**Xurshida Mirxolikovna DJALILOVA**

Filologiya fanlari nomzodi, dotsent

Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti

O‘zbekiston, Toshkent

## **REFLECTION OF FOLK PROVERBS AND WISE WORDS IN ART LITERATURE (ON THE EXAMPLE OF UZBEK JADID LITERATURE)**

**Khurshida Mirholikovna JALILOVA**

PhD in Philology, Associate Professor

National University of Uzbekistan after named Mirzo Ulugbek

Uzbekistan, Tashkent

## **ОТРАЖЕНИЕ НАРОДНЫХ ПОСЛОВИЦ И МУДРЫХ СЛОВ В ХУДОЖЕСТВЕННОЙ ЛИТЕРАТУРЕ (НА ПРИМЕРЕ УЗБЕКСКОЙ ДЖАДИДСКОЙ ЛИТЕРАТУРЫ)**

**Хуршида Мирхоликовна ДЖАЛИЛОВА**

Кандидат филологических наук, доцент

Национальный университет имени Мирзо Улугбека

Узбекистан, Ташкент [Khurshida@mail.ru](mailto:Khurshida@mail.ru)

UDC (УО‘К, УДК): 821.512.133: 82-1/-9

**For citation (iqtibos keltirish uchun, для цитирования):**

Djalilova X. M. Badiiy adabiyotda xalq maqollari va hikmatli so‘zlarning aks etishi (o‘zbek jadid adabiyoti misolida). // O‘zbekistonda xorijiy tillar. — 2022. — № 6 (47). — B. 184-197.

<https://doi.org/10.36078/1676360219>

**Received:** October 22, 2022

**Accepted:** December 17, 2022

**Published:** December 20, 2022

Copyright © 2022 by author(s).

This work is licensed under the Creative Commons Attribution International License (CC BY 4.0).

<http://creativecommons.org/licenses/by/4.0/>



**Open Access**

**Annotatsiya.** Maqolada badiiy adabiyot matnida xalq maqollari va hikmatli so‘zlarning roli, maqollar adabiy asarlarning muhim bir elementi ekanligi tahlilga tortilgan. Mualliflar o‘z asarlarida maqollaridan asar qahramonlariga tavsif berishda, milliy koloritni yaratishda, voqelikka o‘z munosabatlarini bildirishda foydalanishlari o‘zbek jadid adabiyoti misolida muhokama qilingan. Qisqa va lo‘nda bo‘lib, chuqur teran ma‘noga egaligi, hayotiyiligi bilan xalq maqollari o‘zbek jadid adabiyoti vakillari Behbudiy, Avloniy, Fitrat, Cho‘lpon kabi adiblarni ham befarq qoldirmadi. Maqollar ushbu adiblar asarlarida yozma mualliflik adabiyoti bilan xalq og‘zaki ijodini birlashtiradigan “oltin ko‘prik” vazifasini o‘tagan. Behbudiyning “Qasdi safar”, Avloniyning “Afg‘on sayohati”, Fitratning “Hind sayyohi qissasi”, Cho‘lponning “Do‘xtur Muhammadiyor”, Vayronalar orasidan” asarlarida ozodlik, erkinlik, ma‘rifat mavzulari mavzusidagi maqollarga alohida e‘tibor berilgan. Maqollar orqali mualliflar o‘z yurtini o‘zga yurt bilan qiyoslab, yaxshi va yomon tomonlarini ko‘rsatish, kitobxonlarga ibrat bo‘ladigan jihatlarni yorqinroq tasvirlash, vatanparvarlik ruhini singdirish bilan bir qatorda so‘zning ta‘sir kuchini oshirishga erishganlar. Adiblar ijodida maqollar aynan xalq tomonidan yaratilgan ko‘rinishda yoki ayrim so‘zlari o‘zgartirilgan, ba‘zan esa maqoldagi umumiy ma‘no keltirilgan holda ham berib borilgan.

**Kalit so‘zlar:** maqol; hikmatli so‘zlar; milliy kolorit; badiiy adabiyot; o‘zbek jadid adabiyoti; ozodlik; vatanparvarlik; ma’rifat.

**Аннотация.** Пословицы играют важную роль в тексте художественной литературы, ведь пословицы являются важным элементом литературных произведений. В своих произведениях авторы используют пословицы для характеристики героев произведения, создания национального колорита, выражения своего отношения к действительности. Короткие и емкие, обладающие глубоким смыслом и жизненной силой, народные пословицы не оставили равнодушными и представителей узбекской джадидской литературы, таких как Бехбуди, Авлони, Фитрат, Чулпан. В творчестве этих писателей пословицы служили «золотым мостом», соединяющим письменную авторскую литературу и устное народное творчество. В произведениях «Путевые заметки» (Бехбуди), «Афганское путешествие» (Авлони), «Повесть индийского путешественника» (Фитрат), «Доктор Мухамадиёр», «Среди разрушений» (Чулпан) ведущими темами были тема свободы, вольности, просвещения. Уделяя особое внимание пословицам на тему Родины, авторы, помимо усиления чувства тоски по родине, усиливая силу воздействия слова, сравнивая свою страну с другой страной, показывали ее положительные и отрицательные стороны, вселяли дух патриотизма своим читателям-современникам. В их произведениях пословицы использовались либо в первоначальной народной форме, либо изменялись некоторые слова, а иногда передавался общий смысл пословицы.

**Ключевые слова:** пословица; мудрые слова; национальный колорит; художественная литература; современная узбекская литература; свобода; патриотизм; просвещение.

**Abstract.** Folk proverbs play an important role in the text of fiction because proverbs are an important element of literary works. The authors use proverbs to characterize the heroes of the work, create a national color, and express their attitude to reality. The representatives of Uzbek Jadid literature, such as Behbudi, Avloni, Fitrat and Chulpan actively used short and capacious, with deep meaning and vitality folk proverbs. In the work of these writers, proverbs served as a "golden bridge" connecting author's written literature and oral folk art. In the works "Travel Notes" by Behbudi, "Afghan Journey" by Avloni, "The Tale of an Indian Traveler" by Fitrat, "Doctor Muhamadiyor" and "Among the Destruction" by Chulpan, the leading themes were devoted to freedom, liberty, and enlightenment. Paying special attention to proverbs on "Motherland" concept, the authors, in addition showed its positive and negative features, inspiring the spirit of patriotism in their contemporary readers to strengthen the feeling of homesickness through the power of the words.

**Keywords:** proverb; wise words; national flavor; fiction; modern Uzbek literature; freedom; patriotism; enlightenment.

**Kirish.** O‘zbek xalq maqollari necha asrlardan beri bizning nutqimizni boy, rang-barang, sarmazmun bo‘lishiga xizmat qilib kelmoqda. O‘zbek adabiy merosini badiiy, obrazli mulohazalardan iborat hikmatli so‘zlarsiz, ya’ni maqollarsiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Xalqimizda “Otalar so‘zi — aqlning ko‘zi” degan naql bor. Darvoqe, turk tilida maqol aynan “ata sozi”, ya’ni “ota so‘zi” atamasi bilan nomlanishi ham bejiz emas. Umuman olganda, maqol deb xalqning

ijtimoiy-maishiy, tarixiy tajribasi umumlashgan badiiy, obrazli mulohazalardan iborat hikmatli soʻzlarga aytiladi. Xalq ogʻzaki ijodining bir turi sifatida “maqol — qisqa, nutqda barqaror, ritmik uyushgan soʻzlardir” (10, 276).

Maqollar nafaqat estetik, balki tarbiyaviy funksiyani ham bajarib kelmoqda. Folklorshunos olimlar xalq maqollarini “folklorning ixcham shakl, ammo teran mazmunga ega boʻlgan bir janri” sifatida uning “har biri tilimiz koʻrkini, nutqimiz nafosatini, aql-farosat va tafakkurimiz mantigʻini hayratomuz bir qudrat bilan namoyish etgan va eta oladigan bunday badiiyat qatralari xalqimizning koʻp asrlik hayotiy tajribalari va maishiy turmush tarzining bamisoli bir oynasidir”, — deb taʼkidlaydilar (1). Oʻzbekiston xalq shoiri Erkin Vohidov taʼbiri bilan aytganda “Hikmatli soʻzlar, maqollar biz uchun asrlarning sadosi, uzoq oʻtmish bilan hamnafaslik hissini uygʻotuvchi mangu chaqiriq, zamonlararo koʻprikdir” (8, 3).

**Asosiy qism.** Xalq maqollari bir necha asrlar mobaynida yaratilib kelingan boʻlib, ular nafaqat xalq nutqida faol qoʻllanilgan, balki adiblar yaratgan yodgorliklarda ham oʻz ifodasini topgan. Maqollarga ilmiy va adabiy nuqtai nazardan qiziqishni Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yassaviy, Rabgʻuziy, Lutfiy, Alisher Navoiy, Bobur asarlarida kuzatishimiz mumkin. Shuningdek, “XII asrning ulkan tilshunos olimi, folklorshunos va etnograf Mahmud Koshgʻariyning toʻplovchilik faoliyati va uning “Devonu lugʻotit-turk” asari bunga yorqin misol boʻla oladi. “Devon”da turli munosabatlar bilan turkiy xalqlar orasida keng tarqalgan 400 ga yaqin maqol va matallar ham keltiriladi, ularning aksariyati bugun ham ayrim oʻzgarishlar bilan tilimizda muvaffaqiyatli ravishda ishlatilmoqda” (1).

Badiiy yozma adabiyotda maqollardan uch koʻrinishda foydalaniladi:

1. Xalq maqoli aynan keltiriladi.
2. Maqoldagi ayrim soʻzlar oʻzgaradi, maʼno saqlanadi.
3. Shoir biror maqoldagi maʼnodan foydalanib, fikrini ifodalaydi. Bir qarashda bu fikr mustaqildek koʻrinadi. Fikr yuritsak, adibning xalq maqollaridagi maʼnoni boshqa soʻzlar bilan ifodalaganini anglaymiz (14).

Tarixga nazar solsak, turli davrda adiblarning asar badiiyligini oshirish, til ravonligini va uning kitobxon qalbiga kirib borishini taʼminlash maqsadida xalq maqollaridan keng foydalanganlarining guvohi boʻlamiz. Shubhasiz, badiiy adabiyot matnida xalq maqollari muhim rol oʻynaydi, chunki maqollar adabiy asarlarning muhim bir elementidir. Mualliflar oʻz asarlarida xalq maqollaridan asar qahramonlariga tavsif berishda, milliy koloritni yaratishda, voqelikka oʻz munosabatlarini bildirishda foydalanadilar. Adiblar asarlarining gʻoyasiga koʻra unda uchraydigan maqollar ham turli mavzularda boʻlishi mumkin. Vatanparvarlik, tinchlik, mehnatsevarlik, shuningdek, insonlar feʼl-atvoriga xos xususiyatlar ifodalangan maqollar shular jumlasidandir.

Soʻnggi yillar yaratilgan “Oʻzbek xalq maqollari” kitobida filolog olimlar tomonidan xalq maqollari mazmuni jihatidan 65 guruhga ajratib berilgan. Shulardan ogʻzaki nutq va yozma adabiyotda eng koʻp qoʻllaniladigan, aynan oʻzbek mentalitetiga xos boʻlgan:

- Oila va qoʻshnichilik;
- Mehr-oqibat va oqibatsizlik;
- Mehmon va mehmondoʻstlik;
- Qadr-qimmat va qadrsizlik;
- Qarindosh-urugʻchilik va begonalik;
- Farzand va farzandsizlik;
- Andisha va andishasizlik;
- Farosat va farosatsizlik;
- Tejamkorlik va isrofarchilik kabilar.

Ushbu guruhdagi maqollar xalqimizning azaliy qadriyatlari, urf-odatlarini, anʼanalarini oʻzida mujassam etib, hozirgi kunda ham oʻz ahamiyati, qadri va dolzarbligi bilan ajralib turadi.

Umuminsoniy qadriyatlarni oʻz ichiga olgan falsafiy, mangu mavzularni qamrab olgan maqollar:

- Yaxshilik va yomonlik;
- Tinchlik va notinchlik;
- Botirlik va qoʻrqoqlik guruhlarida mujassam boʻlib, insonlar tabiati va feʼl-atvorini tasvirlab, unga baho berishda qoʻl keladigan:

- Mehnatsevarlik va ishyoqmaslik;
- Odob va odobsizlik;
- Kamtarlik va manmanlik;
- Saxiylik va baxillik;
- Samimiylik va nosamimiylik;
- Ahillik va noahillik;
- Halollik va tekinxoʻrlik;

Toʻgʻrilik va egrilik guruhidan joy olgan maqollar ham qaysidir maʼnoda yuqorida koʻrsatilgan bir guruh maqollar turkumi bilan ham uzviy bogʻliqdir. Nazarimizda, ular orasida chegara nisbiy boʻlib, u yoki bu guruhga oʻtish holatlari ham boʻlishi mumkin.

XIX asr oxiri XX asr boshi oʻzbek jadid adabiyotida, asosan:

- Vatan va vatanparvarlik;
- Tenglik va tengsizlik;
- Ilm, kasb-hunar va ilmsizlik;
- Mardlik va nomardlik;
- Tarbiya va odat;
- Sabr-qanoat va sabrsizlik;
- Erk va erksizlik;
- Reja va rejasizlik;
- Masʼuliyat va masʼuliyatsizlik;
- Tozalik, sogʻlik va bemorlik mavzuidagi maqollar

ijodkorlarining diqqat markazida koʻproq boʻlganligini ularning asarlarini sinchiklab oʻrganish, tahlil qilish natijasida kuzatamiz.

Qisqa va lo'nda bo'lib, chuqur teran ma'noga ega ekanligi, hayotiyliги bilan xalq maqollari o'zbek jadid adabiyoti vakillari Furqat, Behbudiy, Avloniy, Fitrat, Cho'lpon kabi adiblarni ham befarq qoldirmadi. Maqollar ushbu adiblar asarlarida yozma mualliflik adabiyoti bilan xalq og'zaki ijodini birlashtiradigan "oltin ko'priк" vazifasini o'tagan. Ijodlarida ozodlik, erkinlik, ma'rifat mavzulari yetakchilik qilgan o'zbek jadid adiblari o'z safarlari natijasida yaratgan sayohatnomalarida vatan tuyg'usi bilan sug'orilgan maqollarni, hikmatli so'zlarni keng qo'llaganlar. Jadid adiblarining sayohat mavzusi bilan bog'liq asarlarda "Bir ko'rgan — tanish, ikki ko'rgan — bilish" maqolidan asl mohiyatini saqlagan holda, turli ko'rinishda mohirona foydalanganliklarini ham kuzatish mumkin.

Vatan mavzusidagi maqollarga alohida e'tibor berilishi musofirlikda yurt sog'inchi tuyg'ularining ortishi bilan bir qatorda o'z yurtini o'zga yurt bilan qiyoslab, yaxshi va yomon tomonlarini ko'rsatish, kitobxonlarga ibrat bo'ladigan jihatlarni yorqinroq tasvirlash, vatanparvarlik ruhini singdirish uchun so'zning ta'sir kuchini oshirishga yordam bergan.

Jadid adiblarimizning ijodini tahlil qilish natijasida shunga yana bir karra amin bo'ldikki, ularning asarlarida xalq maqolining aynan yoki mazmuni saqlangan holda keltirilishi, maqoldagi ayrim so'zlarni o'zgartirish va ko'p hollarda asarlarda maqoldagi ma'nodan foydalanib, o'z fikrini ifodalashlari kuzatiladi. Avvaliga ushbu fikrlar mualliflarning mustaqil fikridek ko'rinsa-da, shubhasiz, mustaqil fikr ham deylik, biroq ushbu fikr va g'oyalar negizida xalq maqollari, hikmatli so'zlar yotganini anglash qiyin emas. Ehtimol, matnda xalq maqollaridagi ma'no va mohiyat boshqa so'zlar bilan ifodalangan bo'lishi ham mumkin.

Ma'lumki, Turkiston jadidlarining karvonboshisi bo'lgan Mahmudxo'ja Behbudiy bir necha bor Sharq va G'arb davlatlariga safar qilgan va safar tafsilotlarini o'zining sayohat xotiralarida yozib qoldirgan. Yo'l ocherklari janriga mansub bo'lgan "Qasdi safar" asarida o'zi borib ko'rgan yurt, elat, millatning tavsifi, turmush-tarzi, kiyinish madaniyati, urf-odati va boshqa etnografik hodisalar haqida hikoya qiladi. Ilm-fan, madaniyat, adabiyot va san'at haqida fikr yuritar ekan, "...bechora turkman qarindoshlarimiz hanuz nimvahshiy holatda kulfat ila umr surarlar. Dunyodan, hatto o'zlaridan xabarleri yo'q... alar xanjar o'rnig'a qalam tutush zamoni kelganini bilmaydurlar" (4, 58), deb kitobxonga "Bilim baxt keltirar", "Bilim — davlatdan qimmat" maqollarni eslatsa, "Ikki emas, to'rt til lozim" maqolasida turkiy, arab, fors, rus tillarini bilish muhimligi haqida o'z vatandoshlariga murojaat qilib, "turkiy bilgan kishi zamoni bilur...Bu zamon tijorat ishi, sanoat va mamlakat ishlari, hatto, dini islom va millatga xizmat ilmsiz bo'lmaydur" deb yozadi va "Til bilgan yo'lda qolmas" xalq maqolini esga soladi.

Behbudiy safari mobaynida Yaqin Sharqning turli shaharlarida o'z vatandoshlarini uchratadi, ular bilan birga safar qiladi. Ularning aksariyati o'zlarini tutishlari, yupun, iflos kiyim-kechaklari bilan

adibni izza qiladi. Quddusi Sharifga ketayotgan paroxoddagi *“bizning Turkiston ayollarining ahvoli nihoyat qattiq va asaflikdur. Bu hanjor ila ayollarni sudramoq va alarni ayoqlar ostida va paraxo‘dni eng yamon joylarida saxlamoq ... gunohdur. Ba‘zi hojilarimizni kissalarig‘a oqchalari bo‘lub, sarf etmasliklari va yalg‘ondan, biz miskin, deb hammol ila va bir-ikki g‘urush rasm olaturgon, karantin va bandar ma‘murlari ila urushub yurgonlari boisi ta‘sifdur. Ba‘zilari bir oy muqaddam Turkistong‘a pishirulgon sassig‘ go‘shlar yeb, kasal bo‘lurlar. Havo issiq, maa fihi qazi va ot go‘shiti yeyarlar. Bir qismi nonni qalanfurg‘a boturib ustidan choy ichib, oxiri qabziyat va kasal bo‘lur. Qoshg‘ariy hoji afandi qarindoshlarimizni kasal va iflosligi ko‘b ko‘runur. Bu so‘zlarni aytib, isloh etmak kerakdur”* (4, 85–86). Shuningdek, *“Bizni hojilar yo‘lda aksariyatan u qadar kir bo‘ladurlarki, durust o‘tellarga borganda ham qo‘ymaydurlar... Har yerdan non va taom topilur. To‘rbalarg‘a qoq non va talqon ko‘tarmoq kulfatdur”*(4, 92).

Behbudiy buning asl sabablari hojilarning aksariyati savodsizligida, ularning hatto o‘zlari ziyorat qilayotgan o‘lka tilini bilmasliklarida deb biladi: *“Yahudiy hojilarning ahvoli rus hojilaridan yaxshi va ammo bizning musulmon hojilarining ahvoli og‘irdur. Til bilmaslik, pulsiz hajg‘a qasd qilmoq va pulliklarning xaysu (mumsik) chirkinligi yana mashaqqatini ziyoda etar”*. Bu hojilar *“kissasig‘a minglab puli bo‘lub turib, to‘yub taom yemaydur. Tevachisini (tuyakash) to‘ydurmay, andan tayoq yeydur. Karantinlarda o‘zini miskin ko‘rsatib, zillatni qabul qilib, pulsiz o‘tar. Maktab yoki madrasa qilaturgon hoji topilmaydur”* (4, 68).

Behbudiy o‘zi kezman yurtlardagi ayrim masjidlarning xaroba ahvolga tushib qolganligini ta‘kidlagan holda (*“masjid atrofi murdor va har taraf ifloslikdadur”*), hatto yevropaliklar ham musulmon me‘morchiligiga tahsinlar o‘qishini (*“muni man so‘ylamayman. Ovrupolik mudaqqiq muhandis va olimlar so‘ylaydur”*), aksariyat *“haramlarning ichi tamoman sayqal berilgan marmarlar ila farsh bo‘lub, safosi va tozaligi mubolag‘asiz, sut to‘kulsa, yalamog‘i mumkin darajada”*ligini va ularning tavsifiga uning qalami ojizligini bildiradi. Bunday masjidlardagi *“qozma va qambartma naqshlar insonni duchori hayrat etar, ... inson o‘zini bir olam hunar, bir dunyo san‘at ichinda ko‘rub, avvalgi musulmonlarning din yo‘linda etgon say‘i va qilgon ixloslarining hamda hunar va nafis san‘atda etgan taraqqiylarining va sarf etgan pul va g‘ayratlarini o‘ylovig‘a g‘arq bo‘lub, ko‘zi tinar va hech nimani ko‘rmas darajasig‘a kelur”* (4, 95).

Behbudiy shunday binolarni barpo etgan ajdodlarga murojaat etib, ularga tahsinlar o‘qiydi: *“Ey, o‘tmish muqaddas musulmonlar! Ey boniylar! Ey fotihlar! Olloh Sizlarni nihoyasiz rahmatlarg‘a g‘arq etsunki, zamonangizda bu qadar lohutiy asarlar va muqaddas buq‘alar bino etibsiz. Chin musulmonlar, haqiqiy insonlar sizlarsiz”* (4, 115). Shu bilan birga adib o‘z zamondoshlarining ularga nomunosib avlod ekanligini, bunga ularning jaholatga botib ketganligi sababligini ko‘rsatadi: *“... sizlarning tarziya va tavsifingizdan bu kungi, biz musulmonlar ojizmiz. Bizlar sizning nohalaf avlodingizdurmiz. Sizni*

*izingizdan ketmoqg'a jaholatimiz mone' bo'ldi... Biz, gumrohlar, yo'ldan chiqib, hazizi (tuban) nafsoniyatg'a kulliyani (butunlay) cho'mubimiz. Bukun o'zlarini madaniyat va insoniyatni eng oliy tabaqasinda deb yalg'ondan da'vo etadurgon insonlar vahshoniyatni eng asfal (tuban) darajasinda qo'l va ayoq urarlar. Milyo'nlar ila bani odamning boisi kulfati va musibati bo'lurlar"* (4, 115–116).

Behbudiyning mazkur sayohat xotiralari nafaqat gumanistik, balki vatanparvarlik tuyg'ulari bilan ham sug'orilgan. Adib safarda vatanini qo'msab, ayrim vatandoshlarining xorijda o'zlarini tutishlaridan or qilsa-da, boshqa vatandoshlari bilan faxrlanadi. Behbudiyning shunday vatandoshlaridan biri Quddusi Sharifdagi Hazrati Iso kalisosining oldida uchratgan toshkentlik yosh bir attordir. *"Do'konig'a biroz o'lturdik, — yozadi Behbudi, mamlakatdan so'radi — Qo'liga bir necha nusxa "Oyna" va "Turkiston xaritasi"ni berdim. Ahli savod ekan. Toshkand shahrini ko'rsatdim. Beixtiyor xarita ustindagi Toshkandni o'pib, ko'zig'a surtdi (Hubbul vatani min al-iymon — Vatanni sevmoq iymondandur). Xususan, vatan va ahli diyorni qadri musofiratg'a ma'lum bo'lur. Haqiqatan vatan, muqaddasdur. Qadrini bilmoq kerak. Sotmasg'a va o'lguncha ayrilmasg'a kerakdur"* (4, 133). Muallif asarda *"Vatanni sevmoq — iymondandir"* hikmatli so'zdan o'rinli foydalanganligini ko'ramiz.

Behbudi ushbu asarda Turkistonning bebaho yurt ekanligini, bu yerda katta pul topish imkoniyatlari mavjudligini suhbat chog'ida ajnabiylar ham tasdiqlaganlarini shunday bayon etadi: *"Turkiston eski dunyoning Amrikosidir. Paxta, ma'dan, g'alla, xulosa, har bir nimarsa bor. Turkiston oltundur... barcha mulkimni sotib, pulig'a Turkistondan yer olib, dehqonchilik etardim. Oltun berib, yer olib, so'ngra olmos ko'tarar edim"* (4,69). Bu satrlarni o'qir ekanmiz, beixtiyor xalqimizning *"Nima eksang, shuni o'rasan"* maqoli yodimizga tushadi. Muallifning *"Muddati sayohat taxminan ikki oy suzar. Bir sanadan beri har na yozduk, har na deduk. Ko'b so'ylagan ko'b xato etar"* misralari orqali *"Ish bor joyda xato bor"*, *"Oz so'zlayu, soz so'zla"* maqollarining asl mazmuni boshqa so'zlar bilan ifodalangan deb taxmin qilamiz.

Aniq safar taassurotlari shaklida yozilgan yana bir asar Abdulla Avloniyning *"Afg'on sayohati"*dir. Ushbu asarda ham muallifning safar taassurotlari hamda o'z ko'zi bilan ko'rgan voqelikka munosabati bayon etadi. Avloniy hukumatning topshirig'i bilan 1919-yilning 26-oktyabridan 1920-yilning 28-iyuliga qadar Afg'onistonning Hirot shahrida muxtor elchi bo'lib xizmat qilgan. Muallif o'z xotiralarida ayniqsa Xavos stansiyasidagi ochlik va vayronagarchilikka alohida to'xtaladi: *"Yo'llarda bo'(l)sun, istansalarda bo'(l)sun, yalang'och, avrotlari ochuq, kiyimlari pora-pora musulmon xotin qizlari, yosh-yosh bolalar ko'rilurdi. Albatta, ilmsiz va tarbiyasiz, ahvoli olamdan xabarsiz musulmonlarning xol-ahvollari birgina O'rta Osiyo yo'linda emas, butun Turkistonning hamma o'lkasida jo'yla fano va ayanch holda ekanlig'in hech kim inkor qilmaydi"* (3, 238). Ushbu parchada adib xalqimizning

“Bilimligi dunyo yorug‘, bilimsizga qorong‘u”, “Ilm — yorug‘lik, jaholat — zulmat maqollarini kitobxonga eslatadi.

Avloniy va uning hamrohlari Chorjo‘ydan paroxod orqali Amudaryo bo‘ylab, Karkiga jo‘nab ketishadi. Muallif Buxoro xonligiga tobe‘ bo‘lgan daryo sohilida joylashgan kichik qishloqlarni kuzatib borar ekan, u yerlarning mahalliy aholisi turkmanlar haqida, zaminning serhosilligi haqida shunday yozadi: *“Turkmanlar tabiat jihatidan nihoyatda g‘ayur va jasur, xudroy, ilmsiz, tutgan yerini kesadurg‘an xalqdirlar. Tabiiy daryo sohili oldig‘idan yeri nihoyatda o‘sumlikdir. Har xil ekin va mevalar o‘sadi. Xususan bu daryo lablarida bitgan qobun butun dunyoga shirinlikda mashhurdir. Havosi mo‘tadil oldig‘indan odamlari nihoyatda sog‘lomdurlar”* (3, 238). Turkman xalqiga “Tutgan yerini kesadigan” deb ta‘rif berar ekan, adib ularning tabiatan aytganini qiladigan kishilar sifatida ta‘riflaydi.

Avloniy yo‘l davomida ko‘plab afg‘on askarlari va zobitlarini uchratadi, turli qabilalar orasidagi nizolarni qoralab, ularni tinch yashashga chaqiradi. Tog‘li-toshli yo‘llarda otlarning tuyoqlari ostidan chiqayotgan tovushlarni go‘yo insonlarni tinch-totuv yashashga chaqirayotgan moziydan kelgan sadoga o‘xshatadi: *“Ey, muxtalif odam bolalari! Na uchun siz bu qadar bir-biringizga dushman o‘ldingiz? Tokaygacha bir-biringizni ichajaksiz? Tokaygacha bir-biringiza dushmanlik va haqorat nazari ila boqajaksiz? Yo‘q! Bu fikringizdan qaytingiz! Bu raftoringizdan o‘soningiz! Bu mutaassiblik, bu jaholatingizni beraqingiz! Bir kun kelur, bu edig‘ingiz, badqirdoringizdan pushaymon ulajaksiz! Lekin so‘ng o‘ngajagingiz foyda vermaz!”* (3, 262). Adib “so‘ng o‘ngajagingiz foyda vermaz” degan jumla orqali donishmand xalqimizning “So‘ngi pushaymon o‘zingga dushman” degan maqolning asl mohiyatini kitobxonga yetkazish niyatida qo‘llagan.

Abdurauf Fitratning “Turkiston ma‘rifatparvarlarining Manifestiga aylangan” (7,101–102) “Hindistonda bir farangi ila buxoroli mudarrisning jadid maktablari xususida qilg‘an munozarasi” 1909-yilda yozib tugallangan bo‘lib, birinchi marta 1911-yilda Istanbulda nashr etildi. Keyinroq unga “Munozara” degan qisqacha nom berildi (11, 235). Fitratshunos olim Hamidulla Boltaboev ushbu asar haqida shunday yozadi: *“Ulug‘ yunon faylasufi Aflotun asarlari uslubida, ya‘ni suhbat-bahs tarzida yozilgan “Munozarada”, nafaqat ahli Buxoro, balki butun Turkiston yoki jumlai Sharq o‘lkalaridagi ta‘lim masalalari borasida fikr yuritiladi. Qissa negizida asos qilib olingan ziddiyatlarning ildizi faqatgina ta‘limning arxaik usuli doirasida qolib ketmaydi, balki Buxoro ziyolilarining shunday jaholat botqog‘iga botib qolishiga va xalqning nochor va qashshoq turmush kechirishiga sabab bo‘lgan illatlar Farangi va Mudarris bahsi vositasida ochib berilgan”* (5, 40).

“Hind sayyohining qissasi haqida gapirganda, muallif uslubiga xos muhim bir nuqtaga ham to‘xtalish zarur”, deb B. Nazarov Fitratning o‘zining ilg‘or ma‘rifatparvarlik g‘oyalarini o‘quvchi ongiga yetkazish niyatida asarning juda ko‘p joylarida Muhammad



payg'ambar hadislarini, Qur'ondan suralar va parchalar keltirganligini va bunday badiiy bayon yo'li faqatgina Fitratga taalluqli bo'lmasdan, o'sha davrdagi ko'pchilik ma'rifatparvar yozuvchilarga ham xos ekanini ta'kidlaydi, masalan "Fitratning hammaslagi Mahmudxo'ja Behbudiy o'zining 1914-yili yozgan "Ikki emas, to'rt til kerak" maqolasida Turkiston xalqlarining rus tilini o'rganishga targ'ib etish uchun tarixiy manbalarga murojaat etib, Muhammad payg'ambar ham o'ziga g'oyaviy dushman bo'lgan yahudiylar tilini o'rganishga amr etganligini yozadi" (9, 9). Akademik B.Nazarov bu holning sabablarini, birinchidan, Fitrat singari ma'rifatparvarlarda islom diniga e'tiqod kuchli ekanligida, ikkinchidan, islom dini ta'limoti hamda muqaddas kitoblardan inson axloqini tarbiyalash, ilm-fanni o'rganish, uni hayotga tatbiq etish niyatida muvofiq hadis uqtiboslar orqali ma'rifatparvarlik g'oyalarini ilgari surganligida va uchinchidan, o'sha davr senzurasiga moslash uchun ham shu yo'l tutilganligini ta'kidlaydi. Darhaqiqat, Fitrat hadislar, suralar va hikmatli so'zlar orqali kitobxonga o'z g'oyalarini singdirishga, kitobxonning ularga nisbatan ishonchini qozonishga hamda so'zning ta'sir kuchini oshirish uchun ham qo'llagan.

Asar qahramoni farangining ta'kidlashicha, *"yaxshi amallar, yaxshi axloqsiz mumkin bo'lmaydir. Biror kimsa ham tarbiyasiz yaxshi axloq sohibi bo'lmaydi. Bizning birinchi tarbiyamiz onalarimiz tarafidandir, ularning o'zlari tarbiya ko'rmagan bo'lsalar, biz ham ularning tarbiyasidan hamisha yomon axloq egasi bo'lamiz"* (11, 59). Fitratning ushbu fikrlari donishmand xalqimiz aytgan Bola — yoshidan, xotin — boshidan" hamda "Bola — loy, ona — kulol" maqollariga hamohangdir.

Fitratning "Hind sayyohining qissasi"da adib "Munozara"dagi g'oyani ilgari suradi. Mazkur ikki asar shakl hamda ularda ko'tarilgan mavzulari ham bir-biriga o'xshash. *"Bu ikki asar ma'lum ma'noda mavzudosh bo'lib, ularda asrimiz boshlarida yuz bergan hodisalar bir millatparvar fozil shaxs tomonidan tahlil etiladi va shu boradagi fikrlar bir-birlarini to'ldiradi"* (6, 11).

"Hind sayyohining qissasi"da adib bosh qahramon obrazi, ya'ni hindistonlik musofirning safar davomida uchratgan insonlardan biriga qarata safarga oid maqoldan foydalangan bo'lsa, boshqa holatlarda sabr va qanoat haqidagi maqollarni esga keltiradigan misralar ham uchraydi. Jumladan, *"sabot va chidamdan boshqa narsasi bo'lmagan millatning hamma narsasi bo'lishi mumkin va sabot-matonatdan boshqa hamma narsasi bo'lgan millat hech narsasiz qolishi mumkin... Bir odamning saboti buyuk bir millatni isloh etishga qodir. Isloh etuvchilar toifasi uchun sabotdan bo'lak asl qurol yo'q. Sabotsizlik zahri qotildirki, har bir millatning tanglayiga tushsa, dimog'idan tutun bo'lib chiqadi"* (11).

Fitrat ushbu asarida tozalik, poklik haqida ham qayg'urib bong uradi va shu o'rinda Qur'on va Hadislardan misollar keltiradi: *"Xudovand pokdir, pokizalikni yaxshi ko'radi, zarif va karimdir, kechirishni xush ko'radi, saxovatlidir, saxiylikni pisand etadi. Shuning uchun uyingiz atrofini pokiza tutingiz... Payg'ambarimiz*

*alayhissalom bular bilan qanoatlanmay, biz musulmonlarning har birimizni ham pokiza bo'lishga undaganlar. Masalan, quyidagicha buyuradilar: "Pokizalik iymonning bir qismidir". Adib "Hind sayyohi qissasi» asarida ham o'zining ilg'or ma'rifatparvarlik g'oyalarini o'quvchi ongiga yetkazish niyatida asarning juda ko'p joylarida Muhammad payg'ambar hadislarini, Qur'ondan suralar va parchalar keltirib, o'z fikriga quvvat baxsh etadi" (9, 9). Bizningcha, o'sha davrda diniy ulamolar tarafidan jadidlarning yangicha qarashlarini Islom diniga qarama-qarshi qo'yib, ularni "kofirlar" deb tamg'a qo'yishgani, usuli jadid maktablariga musulmonlar farzandlarini yaqin yo'latishmagani, hatto maktablarni yoqib tashlashgani va umuman hurfikrlikka qarshi bo'lgan jaholatlik harakati sababli ma'rifatparvar adiblarning Qur'on suralari va hadislariga yana-da ko'proq murojaat qilishlariga undagan deb o'ylaymiz.*

Ma'rifatparvar Fitrat *"agar biz o'zimizning bilimimiz va iqtidorimizdan foydalanmasak, nainki e'tiborli, ustun, balki eng yomon va past maxluqlardan ham pastroq va yomonroq bo'lib qolishimiz aniqdir"* deb, kitobxonga, xalqqa yetib borishi oson bo'lishi uchun ishonchli manbalarga murojaat qiladi. Yana boshqa o'rinda xalqimizning "Harakatda baraka" maqolini quyidagi so'zlar bilan ta'kidlaydi: *"Inson nimagaki erishsa, harakatining natijasidan topadi. Agar intilmasa, hech narsaga erisha olmaydi"*. Adib sayyoh tili orqali *"siz o'z bilim va iqtidoringizni ishga solishingiz kerak. Agar intilmasangiz, unda xudodan nima gina? Hokimdan nima shikoyat?"* deb, Turkiston musulmonlarining og'ir ahvolidan avvalo ularning bilimsizligi, dangasaligi, beparvoligida deb biladi. *"Alloh taolo bu ma'nini Qur'onda xabar bergan: "Bilmaganlar bilganlarga tenglasha olmaydilar" deb, yana bir bor muqaddas kitobga murojaat qiladi. Ushbu asarda kasb-hunar, rejalik va rejasizlikka oid xalq maqollari bilan hamohang fikrlarni kuzatamiz. Sayyohning bir alocha hunarmandi bilan suhbatida, o'z kasbining istiqbolini o'ylamay "Hozir ishimiz yaxshi, o'n yildan keyin kim tirig-u kim o'lik?" degan qarashlariga "Usta janoblari, siz kelajak haqida fikr yuritishni unutmang, chunki har bir kishining hayoti o'z ishining kelajagi bilan bog'liq. Ertani o'ylash olam obodligining boisidir"* (11) degan ilg'or fikrini qarshi qo'yadi.

Asardagi sayyohning qozi bilan dialoglaridan birida bechora, nodon er-xotinning janjali evaziga mo'maygina foyda olgan qozining sevinchi ichiga sig'may, "Shahar yonmasa, darvishning kabobi pishmas" iborasini qo'llab, muallif ushbu salbiy personajga xalq maqoli orqali baho beradi. *"Siz janoblarini qanday xursand qilishni bilmas edik. Yaxshiyamki, xudo yetkazdi. U xotinning nonini mushuk olib qochib, biz ham bir necha tangaga ega bo'ldik"* (11), degan qozining gaplari orqali uning asl basharasini ochib beradi.

"Hind sayyohining qissasi"da qadimiy me'morchilik yodgorliklarining vayron qilinayotganligi afsus va nadomat bilan qayd etiladi: "Yevropaliklar bizlardan kelgusi avlodga bir yodgorlik qolsin, deb har kuni bir xayr binosini bunyod etadilar, — deb yozadi

Fitrat, — biz musulmonlar esa “*kelgusi avlodga bizdan yodgorlik qolsin, ular bizning nomimizni unutishmasin*” degan fikrni xayolimizga ham keltirmaymiz. Ustiga ustak yana ajib savdo shundaki, ota-bobolarimiz va ulug‘larimizdan qolg‘an yodgorliklarni buzamiz, xarobaga aylantiramiz” (11, 139).

“Hind sayyohining qissasi” asarida Buxoro amirligi muassasalaridagi poraxo‘rlik, munofiqlik, ikkiyuzlamachilik, g‘iybatchilik, bir-birini ko‘rolmaslik, ishyoqmaslik, qalloblik kabi illatlar haqida ham keng mushohada yuritiladi. Xo‘jalik yuritishining yangi usuliga o‘tish, omochlar o‘rniga mexanizmlardan foydalanish, yerni mineral o‘g‘itlar bilan oziqlantirish va hosildorlikni oshirish dehqonlar turmushini yaxshilashning birdan-bir yo‘li sifatida ta‘riflanadi. Asarda shu tadbirlar amalga oshirilsa, xalqning turmushi yaxshilanib, ongi o‘tajagi, diniy xurofotdan xalos bo‘lib, ilm-fandan keng bahramand bo‘lishi, dunyoni yaxshiroq anglashi mumkin, degan fikr ilgari suriladi.

Hind sayyohi Qur‘on oyatlariga suyangan holda inson dunyoda hamma narsadan aziz bo‘lishi kerak, hamma narsa inson izmiga bo‘ysunishi lozim, degan fikrni ilgari suradi. “*Demak mulohaza qiling, — deydi u, — agar yeru osmondagi narsalarning bir qismi insonga bo‘ysunmas ekan, farangilar bu yelkanli kemalar va havoda uchish vositalarini qayerdan yaratmoqdalar. Ko‘rdingizmi, Inson Qur‘oni karimning hukmi bilan ham oliy maxluqotdir, u yeru osmonga amr beruvchidir. Agar tog‘u osmon, temiru mumning insonning iqtidorli panjasining ostida farqi yo‘q bo‘lsa, u nega qo‘yga o‘xshar ekan? Nega turmush tarzini o‘z hokimlaridan o‘rganar ekan?*” (11, 153).

Hindistonlik sayyoh o‘z aqidalari, targ‘ibotlari bilan odamlarni hayotga hushyor, sezgir boqishga undaydi. U musulmonlarni yevropaliklardan ibrat olishga, telefon, telegraf, parovoz, havo kemalari sirlarini egallashga chaqiradi. “*Vaqtida Sharq G‘arbning ustozlari edi, — deydi sayyoh, — madaniyati yuksak, xalqlari dono edi. Endilikda Sharq ancha qoloq darajaga tushib qoldi. Lekin uni bartaraf etish mumkin. Endilikda Sharqning Yevropadan o‘rganish vaqti yetdi*”.

“Hind sayyohining bayonoti”da esa quyidagi suhbatning guvohi bo‘lamiz. Qarshi shahrida hind sayyohi mashhur alacha to‘quvchisi bilan suhbat quradi: “*Hurmatli usta, Ovrupa xalqlari, agar biror ishga qo‘l ursalar, shu ishlarning o‘n yil, yigirma yil, hattoki yuz-ikki yuz yil keyingi rivojini ko‘zda tutadilar. Siz — Qarshi xalqi ham juda yuksak hunarga egasiz. Ana shu hunarlaringni kelgusi taqdirini hech o‘ylamaysizlarmi?*”

*Usta: Bizning hunarimiz bundan bir necha yillar avval ham yaxshi edi. Hozir ham yomon emas. Biroq, kelgusida nima bo‘lishini xudo biladi.*

*Men: To‘g‘ri, ammo siz ana shu hunaringizning yana o‘n yil davom etishi uchun biror harakat qilyapsizmi?*

*Usta: Hozir ishimiz yaxshi, o‘n yil keyin kim tirigu kim o‘luk?*” (11, 141).

Ushbu dialogda muallif xalq maqollaridan aynan foydalanmasada, ularning o'zgartirilgan variantlarini ko'rishimiz mumkin.

O'zbek ma'rifatparvar adiblaridan biri bo'lmish Cho'lpon ham o'zining safar mavzusi bilan bog'liq "Do'xtur Muhammadiyor", "Vayronalar orasidan" va "Yo'l esdaligi" asarlarida xalq maqollariga turli yo'l orqali murojaat qiladi. Cho'lponning adabiy merosiga nazar tashlar ekanmiz, unda muallifning ilk ijodidan boshlab, mustamlaka sharoitida g'aflat uyqusiga botgan xalqni uyg'otish, uning qalbiga ma'rifat, milliy istiqloq kabi g'oyalarni singdirishga kirishganligini ko'ramiz. Adibning 1914-yili "Sadoi Turkiston" gazetasida chop etilgan "Do'xtur Muhammadiyor" hikoyasi bunga misol bo'la oladi. Asarda muallif madaniyat va ma'rifat targ'ibotchisi sifatida gavdalanadi, inson dunyoqarashi, kundalik yurish-turishi, axloq-odobi, atrofdagilarga munosabati, mehnati, bilimi bosh qahramon obrazi orqali tarannum etiladi.

Cho'lpon Muhammadiyor obrazi orqali 20-yillar boshida o'zbek yoshlarining ongida sodir bo'layotgan o'zgarishlarni ochib beradi. Asarda muallif Muhammadiyor safari orqali vatanining ayanchli ahvolini, vatandoshlarning zamondan orqada qolganliklari va og'ir turmush kechirayotganliklarining sababi bilimsizlik, nodonlik ekanligini ta'kidlab, faqat ma'rifat ila yorug' kunlarga erishish mumkin degan g'oyani ilgari suradi. Hikoyada safarining birinchi soatlaridan Muhammadiyor vokzaldagi tartibsizliklar, ya'ni musulmon xalqining nodonlik, savodsizligi tufayli biri boradigan bekatning nomini bilmay, boshqa yo'nalishga chipta olib qo'ygan, biri xurjunini yo'qotgan, birini poezd ma'murlari tutib urishganini ko'rib ko'ngli ayanchga to'ladi. *"Ey vatandoshlarim! Qachongacha bu g'aflat? ... Ko'z oldingizga kelib turg'on ilm va ma'rifat mevasidan foydalanmasdan nimaga og'izlaringizni ochub qarab turasizlar? Nimaga bu ishlarga kirishmaysizlar? Uyqudan ko'z ochinglar! Urinunglar! Ilm, ma'rifat va hunar izlanglar! Vaqt yetdi, balki o'tdi!"* (12, 275) deb, vaqt qadriga, ilm-ma'rifatga oid xalq maqollarini eslatadi.

Abdulhamid Cho'lponning "Vayronalar orasidan" safarnomasida Turkiston shaharlaridagi og'ir ahvolni quyidagicha tasvirlab *"Xarob bo'lg'an, bo'layotg'an va xarob bo'lg'usi katta madrasalar va ularning bir xil vahshiy chehra ko'rsatguchi, qo'pol peshtoqlari o'tgandagi shaharlardan bir nishon va alomat saqlab turodurlar... Eshagiga yarasha tushovi! — degandek, O'sh shahriga yarasha shahar g'amxo'ri, ya'ni baladiya shu'basi! Shaharning birgina joyida birgina narsa ko'rinmaydurkim, baladiya shu'basi o'shani qilg'an bo'lsa... Bozor o'rtasidan oqib yotgan chiroyli soyning ustida bir katta ko'pruk solishibdur, so'rattirsam: unda ham baladiya shu'basining ko'p daxli yo'q ekan"* (13). Ushbu parchada muallif quyidagi "Eshagiga yarasha tushovi" xalq maqolini satirik maqsadda qo'llagan. Ziyrak kitobxon achinarli ahvoldagi shahar manzarasi fonida baladiya shu'basining faoliyati haqidagi muallif kinoyasini anglashi qiyin emas. Ushbu maqol xalqimizda yaratilgan "Qozoniga yarasha — qopqog'i", "Eshagi yo'qning tushovi yo'q",

“Qozoniga yarasha — o‘chog‘i” maqollarining bir ko‘rinishidir. “Ma‘nolar maxzani” kitobida ushbu maqolga quyidagicha ta‘rif beriladi “*Majoziy ma‘noda arzimagan narsaga arzimagan harakat, taraddut qilinganda yo shunday qilinishi kerakligi uqtirilganda ... va shunga o‘xshash hollarda*” (8, 405) qo‘llanilishiga ishora qilingan.

Adib “*Shu katta sayohatning natijasida ko‘b narsalarni ko‘rdik. 5-6 yillik buzg‘unlik tarixini joy-joyida varaqlab o‘qib ko‘rdik. Buzg‘unlik haqiqatan juda kuchlik. Buzg‘unlikni yo‘q qilib, yiqilganni tiklash uchun juda zo‘r kuchlar, tuganmas g‘ayratlarga ehtiyoj bor. Yurt buzulg‘an. Lekin uning munbit tuprog‘i ko‘chib ketgani yo‘q, joyida. U tuproq orqali yana yurtni yashnatmak siz va bizning qo‘limizda, hurmatlik o‘qig‘uchilar*” deb, kitobxoniga murojaat qiladi.

Yuqoridagi asarlarni tadqiq qilish natijasida matnlar tarkibida bir necha maqollarning turli ko‘rinishida, ya‘ni maqollar aynan xalq tomonidan yaratilgan tarzda yoki ayrim so‘zlari, jumalari o‘zgartirilgan holda ham berib borilgan degan xulosaga kelamiz. Shuni ta‘kidlash joizki, ba‘zi hollarda maqolning umumiy ma‘no va asl mohiyatni eslatadigan muallifning fikrlari bayon etilishiga ham guvoh bo‘lamiz. Ehtimol, jadidlarning kitobxonlar tomonidan ayrim mustaqil fikr sifatida qabul qilingan iboralari qadimgi maqolalar ham bo‘lishi, hozirgi kunda iboradan chiqib ketganligi yoki bizning bexabarligimiz sababli nazarimizdan chetda qolgan bo‘lishi ham mumkin.

Maqollarning qo‘llanilishi til va ijtimoiy o‘zgarishlarning ko‘rsatkichi sifatida ham yana bir bor namoyon bo‘ladi, deb yozadi ingliz maqolshunos adib Jennifer Spik (Jennifer Speake) (2), vaqt o‘tishi bilan ijtimoiy o‘zgarishlar tufayli ayrim maqollar eskirganligini, hatto ayrim so‘zlarning talqini yigirma birinchi asrda umuman teskari ma‘noni anglatishi ham mumkinligini ta‘kidlab o‘tadi. Shu sababli ham adabiyot tarixiga mansub asarlarda maqollar o‘rnini aniqlashda, ularga xolisona baho berishda, umuman, ilmiy tahlil qilishda o‘ziga xos qiyinchiliklar ham yuzaga keladi. Bu esa ushbu soha oldida yana yangi vazifalarni qo‘yadi.

Xulosa qilib aytganda, o‘zbek jadidlari maqollar orqali o‘z asarlari uslubini badiiy jihatdan boyitish bilan birga, o‘z kitobxonlarining e‘tiborini xalq donishmandligiga qaratishga, zamondoshlari qalbiga yaqin bo‘lishga intilib, o‘zlarining purma‘no, nasihatimiz fikrlari orqali yurt ozodligi, erkinlik va eng muhimi, ma‘rifat tomon yo‘l ko‘rsatganlar. Yana shuni alohida ta‘kidlash joizki, bir maqol bir necha ma‘noni ham anglatganligi bois, uning aynan qaysi ma‘noda qo‘llanilganligini faqat kontekst ichida aniqlash mumkinligiga o‘zbek jadid adiblarining asarlarini tahlil qilish jarayonida guvoh bo‘ldik.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirzayev T. O‘zbek xalq maqollari. — URL: [www.ziyouz.com](http://www.ziyouz.com) kutubxonasi
2. The Oxford Dictionary of Proverbs. Edited by Jennifer Speake. Fifth Edition. Oxford University Press, 2007. — 2611 p.

3. Авлоний А. Танлаган асарлар. 2 жилдлик, 2-ж. — Т.: Маънавият, 1998. — 280 б.
4. Бехбудий М. Танланган асарлар. — Т.: Маънавият, 1999. — 69 б.
5. Болтабоев Х. Фитрат ва жадидчилик. — Тошкент: Алишер Навои номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2007. — 40 б.
6. Болтабоев Х. Фитрат ва истиклол маънавияти // Фитрат, Абдурауф. Танланган асарлар. 2 жилдлик, 1-жилд, — Т.: Маънавият, 2000. — 236 б.
7. Каримов Э. Развитие реализма в узбекской литературе. — Т.: Фан, 1975. — С. 101–102.
8. Маънолар махзани./ Шомаксудов Ш., Шорахмедов Ш. Т., Ўзбекистон энциклопедияси, 2018. — 405 б.
9. Назаров Б. Фитрат маърифатининг гултожи// Шарқ юлдузи. — 1991, № 8. — Б. 8–9.
10. Словарь литературоведческих терминов. Составители Тимофеев Л.И., Тураев С.В., — М., Просвещение, 1984. — 276 с.
11. Фитрат А. Танланган асарлар. 2 жилдлик, 1-жилд, — Т.: Маънавият Т., Маънавият, 2000. — 235 б.
12. Чўлпон А. Асарлар. 2-жилд. — Т.: Ф.Фулум номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1994. — 490 б.
13. Чўлпон А. Вайронлар орасидан. — URL: <https://ziyouz.uz/matbuot/jadid-matbuoti/abdulhamid-cholpon-vayronalar-orasidan-1924/>
14. [http://turizm.kasaba.uz/uz/uzbek legends and mythes/maqollar](http://turizm.kasaba.uz/uz/uzbek_legends_and_mythes/maqollar)

#### References

1. Mirzayev T. *Uzbek xalq maqollari* (Uzbek folk Proverbs), available at: [www.ziyouz.com kutubxonasi](http://www.ziyouz.com/kutubxonasi)
2. *The Oxford Dictionary of Proverbs*. Edited by Jennifer Speake. Fifth Edition. Oxford University Press, 2007, 2611 p.
3. Avlonii A. *Tanlangan asarlar* (Selected works), in 2 vol., vol. 2, Tashkent: Ma'naviyat, 1998, 280 p.
4. Behbudii M. *Tanlangan asarlar* (Selected works), Tashkent: Ma'naviyat, 1999, 69 p.
5. Boltaboev Kh. *Fitrat va zhadidchilik* (Fitrat and witchcraft), Tashkent: Alisher Navoi nomidagi Uzbekiston Millii kutubxonasi nashrieti, 2007, 40 p.
6. Boltaboev H. *Fitrat, Abdurauf. Tanlangan asarlar* (Selected works), in 2 volumes, 1 vol., Tashkent: Ma'naviyat, 2000, 236, 345 p.
7. Karimov E. *Razvitie realizma v uzbecksioi literature* (The development of realism in Uzbek literature), Tashkent: Fan, 1975, pp. 101–102.
8. *Ma'nolar makhzani* (Meanings are special), Shomaksudov Sh., Shorahmedov Sh., Tashkent, Uzbekiston entsiklopediyasi, 2018, 405 p.
9. Nazarov B. *Shark yulduzi*, 1991, No. 8, pp. 8-9.
10. *Slovar' literaturovedcheskikh terminov* (Dictionary of literary terms), Compilers Timofeev L.I., Turaev S.V., Moscow, Prosveshchenie, 1984, 276 p.
11. Fitrat A. *Tanlangan asarlar* (Selected works), in 2 vol., 1 vol., Tashkent: Ma'naviyat, 2000, 235 p.
12. Chulpon A. *Asarlar* (Selected works), 2 vol., Tashkent: G.Gulom nomidagi Adabiet va san'at nashrieti, 1994, 490 p.
13. Chulpon A. Vayronalar orasidan, available at: <https://ziyouz.uz/matbuot/jadid-matbuoti/abdulhamid-cholpon-vayronalar-orasidan-1924/>
14. [http://turizm.kasaba.uz/uz/uzbek legends and mythes/maqollar](http://turizm.kasaba.uz/uz/uzbek_legends_and_mythes/maqollar)